Qabul qilindi: 25-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 27-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 29-noyabr 2026-yil

ZULFIYA SHE’RLARINI IFODALI O‘QISH VA TAHLIL QILISH

Boymurotova O‘roltosh Ruizboy qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining taniqli namoyandasi, atoqli shoira Zulfiyaxonim ijodining o‘ziga xos xususiyatlari, uning she’rlarini ifodali o‘qish usullari hamda badiiy tahlil qilish masalalarini ko‘rib chiqamiz. Shuningdek, shoira asarlaridagi Vatanga muhabbat, sadoqat, insoniylik, tabiat go‘zalligi va ayol qalbi kechinmalarining badiiy ifodasi haqida fikr yuritamiz.

Kalit so‘zlar: she’riyat, ifodali o‘qish, badiiy tahlil, obraz, lirik qahramon, tuyg‘u, sadoqat, vatanparvarlik, maqola.

Abstract: This article examines the distinctive features of the creative works of Zulfiyakhanim, a prominent representative of Uzbek literature and a renowned poetess. It explores methods of expressive reading and literary analysis of her poems. Furthermore, the article discusses the artistic representation of love for the Motherland, devotion, humanity, the beauty of nature, and the emotional experiences of a woman’s heart in the poetess’s works.

Keywords: poetry, expressive reading, literary analysis, image, lyrical hero, emotion, devotion, patriotism, article.

O‘zbek adabiyoti tarixida o‘zining betakror ijodi, samimiy tuyg‘ulari va chuqur mazmunli she’rlari bilan alohida o‘rin egallagan ijodkorlardan biri Zulfiya Isroilovadir. Shoira o‘z asarlarida inson qalbining nozik kechinmalarini, muhabbat va sadoqatni, Vatanga bo‘lgan mehrni, tabiat go‘zalligini hamda hayotning turli murakkabliklarini mahorat bilan tasvirlagan. Uning she’rlari o‘quvchini ezgulikka, sabr-toqatga, mehr-oqibatga va hayotni qadrlashga undaydi.

Zulfiya ijodining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, uning she’rlarida insoniy

tuyg‘ular samimiy va ta’sirchan ifodalanadi. Shoira oddiy hayotiy voqealar orqali katta ma’nolarni ochib bera olgan. Shu sababli uning asarlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Zulfiyaxonim she’rlarini o‘rganish nafaqat adabiy bilimlarni boyitadi, balki o‘quvchilarning estetik didi, nutq madaniyati va mustaqil fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Zulfiya ijodida muhabbat, sadoqat, Vatan, tabiat, insoniylik va ayol qalbining kechinmalari asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Shoira hayotdagi go‘zalliklarni nozik his etgan holda, ularni o‘z she’rlarida obrazli va ta’sirchan ifodalagan. Ayniqsa, uning muhabbat va sadoqat mavzusidagi she’rlari o‘zining samimiyligi bilan ajralib turadi. Zulfiya she’riyatida muhabbat shunchaki ikki inson o‘rtasidagi tuyg‘u emas, balki insonning hayotga, ezgulikka va kelajakka bo‘lgan ishonchi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shoiraning turmush o‘rtog‘i Hamid Olimjon xotirasiga bag‘ishlangan she’rlarida chuqur sog‘inch, vafo va sadoqat tuyg‘ulari yorqin aks etgan. “Bahor keldi seni so‘roqlab” she’ri bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu she’rda bahor fasli orqali sog‘inch va xotira tuyg‘ulari ifodalanadi. Bahorning kelishi lirik qahramon qalbida o‘tgan kunlarni, sevimli inson xotirasini uyg‘otadi. Tabiatdagi yangilanish bilan inson qalbidagi iztirob o‘rtasida o‘ziga xos badiiy bog‘liqlik yuzaga keladi.

Shoiraning “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush” she’rida esa tinchlik, inson hayoti va kelajak avlod taqdiri masalalari ilgari suriladi. Asarda urushning ayanchli oqibatlariga qarshi norozilik, tinch hayotga bo‘lgan intilish kuchli ifodalangan. Bu kabi she’rlar yosh avlodni tinchlikni qadrlashga, inson hayotiga hurmat bilan qarashga undaydi. Shuningdek, ko‘plab ijodkorlarimiz Zulfiya xonimning ijodiga bag‘ishlab turli asarlari va maqolalar yozgan. Misol uchun

1. Omon Sharafiddinov – «Qalbimizga yaqin shoira» maqolasi. “Adabiy etyudlar” kitobida chop etilgan. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1968-yil.

2. Laziz Qayumov – “Shoira Zulfiya” Hayoti va ijodi haqida ocherk. Toshkent: O‘zadabiynashr, 1965-yil.

3. Ibrohim G‘afurov – “Joziba” Adabiy-tanqidiy maqolalar. 1970-yil

Badiiy asarni o‘qish jarayonida uning mazmunini anglash bilan bir qatorda, muallifning his-tuyg‘ularini tinglovchiga yetkazish ham muhim hisoblanadi. Ayniqsa, she’riy asarlarni ifodali o‘qish o‘quvchidan to‘g‘ri talaffuz, ohang, pauza, urg‘u va ovoz balandligini to‘g‘ri tanlashni talab qiladi. Zulfiya she’rlarini ifodali o‘qishda quyidagi jihatlarga e’tibor berish lozim:

1. She’r mazmunini tushunish. O‘quvchi she’rni o‘qishdan oldin uning mavzusi, asosiy g‘oyasi va lirik qahramon kechinmalarini anglab olishi kerak.

2. Ohangni to‘g‘ri tanlash. She’rning mazmuniga qarab quvonchli, sokin, hayajonli yoki mungli ohangdan foydalanish lozim.

3. Pauzaga rioya qilish. Misralar va bandlar orasidagi to‘xtamlar she’r mazmunining tinglovchiga aniq yetib borishiga yordam beradi.

4. Muhim so‘zlarga urg‘u berish. Asosiy ma’noni ifodalovchi so‘zlarni alohida ta’kidlab o‘qish she’rning ta’sirchanligini oshiradi.

5. His-tuyg‘ularni ifodalash. She’rni shunchaki yoddan aytish emas, balki undagi kechinmalarni his qilib o‘qish zarur. Masalan, “Bahor keldi seni so‘roqlab” she’rini ifodali o‘qishda sog‘inch va mung tuyg‘ularini aks ettiruvchi sokin ohangdan foydalanish maqsadga muvofiq. “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush” she’rini o‘qishda esa ona qalbidagi iztirob, mehr va tinchlikka bo‘lgan intilish ovoz ohangi orqali namoyon etilishi kerak.

She’riy asarni tahlil qilishda uning faqat mazmunini aytib berish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Bunda asarning mavzusi, g‘oyasi, kompozitsiyasi, badiiy tasvir vositalari, obrazlari va lirik qahramon ruhiyati o‘rganiladi. Zulfiyaxonim she’rlarida tashbeh, istiora, jonlantirish, sifatlash kabi badiiy vositalardan samarali foydalanilgan. Shoira tabiat hodisalarini inson kechinmalari bilan bog‘lab tasvirlash orqali o‘ziga xos badiiy manzaralar yaratadi. Masalan, bahor fasli yangilanish, umid va hayot ramzi sifatidanamoyon bo‘lsa, kuz manzaralari ayriliq va xotira tuyg‘ularini ifodalashga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Zulfiyaxonim ijodi o‘zbek adabiyotining bebaho ma’naviy

boyligidir. Shoiraning she’rlari insonni sevishga, sadoqatli bo‘lishga, Vatanini qadrlashga va hayotdagi go‘zalliklarni his etishga chorlaydi. Uning asarlarini ifodali o‘qish o‘quvchilarning nutq madaniyati, talaffuzi va sahna mahoratini rivojlantirsa, badiiy tahlil qilish adabiy tafakkuri hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi. Shoira asarlaridagi ezgulik, mehr, vafo va tinchlik g‘oyalari kelajak avlod uchun ham doimo ibrat maktabi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zulfiyaxonim. “Tong bilan shom aro” – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2006. – 168 sahifa.

2. Zulfiyaxonim. “Yuragimga yaqin kishilar” – Toshkent: O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958. – She’rlar to‘plami.

3. Zulfiyaxonim. “Bahor keldi seni so‘roqlab” – Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2016. – 192 sahifa.

